

KORXONALAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY TAHLILNING VAZIFALARI

B.N. Muydinov, i.f.n., dots.,

University of economics and pedogogy NOTM

O'quv ishlari bo'yicha prorektori, Andijon davlat universiteti

"Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti, O'zbekiston

Annotatsiya. Maqola korxonalar faoliyatini rivojlantirishda iqtisodiy tahlilning vazifalariga bag'ishlangan. Maqolada, korxonalar faoliyatini rivojlantirishda iqtisodiy tahlil mazmuni va vazifalari qanday ahamiyatga ega ekanligi ochib berilgan. Iqtisodiy tahlil nima? U korxonalar faoliyatini rivojlantirishda qanday ahamiyat kasb etadi? Iqtisodiy tahlilning vazifalari nimalardan iborat? Kabi savollarga javoblar berilgan.

Kalit so'zlar: boshqaruv tizimi, iqtisodiy mexanizm, erkin boshqarish, ichki va tashqi imkoniyatlar, biznes-reja, omillar, ichki xo'jalik rezervlari, tahlil materiallari, buxgalteriya hisobi, boshqaruv qarorlari.

Аннотация. Статья посвящена задачам экономического анализа в развитии предприятий. В статье раскрывается значение содержания и задач экономического анализа в развитии предприятий. Что такое экономический анализ? Какое значение он имеет в развитии предпринимательской деятельности? Какие задачи решает экономический анализ? Ответы на такие вопросы.

Ключевые слова: система управления, экономический механизм, свободный менеджмент, внутренние и внешние возможности, бизнес-план, факторы, внутренние резервы, аналитические материалы, бухгалтерский учет, управленческие решения.

Abstract. The article is devoted to the tasks of economic analysis in the development of enterprises. The article reveals the importance of the content and tasks of economic analysis in the development of enterprises. What is economic analysis? What importance does it have in the development of enterprise activity? What are the tasks of economic analysis? Answers to questions like.

Keywords: management system, economic mechanism, free management, internal and external opportunities, business plan, factors, domestic reserves, analytical materials, accounting, management decisions.

Iqtisodiyotini raqamlashtirish sharoitida korxonalar faoliyatini rivojlantirishda iqtisodiy tahlilning roli keskin oshmoqda, chunki, korxonalar faoliyatini rivojlantirish boshqaruv tizimiga bog'liq bo'lib, boshqaruv tizimida oldingi mahmuriy-buyruqbozlik tizimidan voz kechilib, yangi, erkin iqtisodiy mexanizmlar orqali boshqarish tizimi shakllanmoqda. Rejali iqtisodiyotda tahlil asosan reja ko'rsatkichlarini asoslashga,

uning bajarilishini tahminlashga qaratilgan bo'lsa, erkin iqtisodiyot sharoitida esa har bir xo'jalik sub'ekti, mulk shaklidan qat'iy nazar o'z faoliyatini yuqoridan berilgan buyruqni bajarishga qaratmasdan, balki, mustaqil ravishda o'zining iqtisodiy qudratini takomillashtirish maqsadida erkin boshqarishga qaratadi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy tahlilning rolini yanada oshiradi.

Iqtisodchi olimlarning fikricha: — Iqtisodiy tahlil orqali har bir subhektida mavjud bo'lgan ichki va tashqi imkoniyatlar aniqlanadi, ularni amaliyotga safarbar qilish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi¹. Bu degani mavjud imkoniyatlar o'rganilib, amalda ularning qancha qismidan foydalanilganligi tahlil qilinadi. Bu orqali foydalanilmay qolgan ichki imkoniyatlar aniqlanadi. Buning natijasida esa qo'shimcha mablag' sariflamagan holda foydalanilmay turgan ichki imkoniyatlardan foydalanib korxonani rivojlantirish imkoniyatlari yaratiladi. Faoliyatimizni tahlil qilmaslik esa mavjud imkoniyatlarimizdan to'laqonli foydalanilmasligiga olib keladi. Masalan, "Go'zal liboslar" MCHJ tomonidan bir dona erkaklar ko'ylagi ishlab chiqarish uchun 100 sm mato sarflanmoqda. O'tkazilgan tahlillar natijasida 100 sm matoning 90 sm ko'ylak uchun 10 sm mato chiqindiga sarflanayotganligi ma'lum bo'ldi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki matolardan samarali foydalanish va tikilayotgan ko'ylaklar razmerlarini to'g'ri taqsimlash natijasida har bir ko'ylakdan sarflanayotgan 10 smli chiqindilarni 2 smga tushurish imkoniyati mavjud. Buning natijasida har bir ko'ylakdan 8 sm mato tejab qolish imkoniyatlari aniqlandi. Bir kunda MCHJda 100 dona ko'ylak tikilishini hisobga olsak bir kunda $100 \cdot 8 = 800 \text{sm}$, bir oyda $800 \cdot 30 = 2400 \text{sm}$ matoni ortiqcha sarflanishi oldini olinishi yoki $2400/90 = 26$ dona qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi.

Iqtisodiy tahlilning eng muhim vazifalari quyidagilardan iborat:

- biznes-rejaning qanchalik realligi va ilmiy jihatdan asoslanganligiga baho berish;
- iqtisodiyotni rivojlantirishning joriy va istiqbol rejalarini tuzish uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar bazasini aniqlash;
- biznes-rejasining bajarilishiga ob'ektiv baho berish hamda uni bajarishda korxonalarga bog'liq va bog'liq bo'lmagan omillar va sabablarni bir-biridan ajratib aniqlash;
- ichki xo'jalik rezervlarini aniqlash (bu o'rinda tahlilning samarasi, birinchidan, aniqlangan rezervlarni butun nazariy jihatdan asoslangan rezervlarga nisbati va ikkinchidan, amalga oshirilgan rezervlarning aniqlangan rezervlarga nisbati bilan belgilanadi);
- korxonalarining xo'jalik faoliyatida kutiladigan natijalarni oldindan aniqlash;

¹ Шоалимов А.Х., Илхомов Ш. И. Тожибоева Ш.А. Иқтисодий таҳлил ва аудит. Дарслик. –Т.: Иқтисодиёт, 2016.

- tahlil materiallariga asosan ishlab chiqarishda aniqlangan kamchiliklarni tuzatishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish.

Erkin iqtisodiyoti sharoitida «Iqtisodiy tahlil»ning vazifasi ushbu yuqorida ta'kidlangan vazifalar bilan cheklanmaydi. Bozor sharoitida korxonalar faoliyati shu darajada serqirradi, tahlil jarayonida uning hamma jihatlarini o'rganish lozim bo'ladi. Shu sababli ham, iqtisodiy tahlilning vazifasi ham ko'p qirralidir. Biz esa shu kabi vazifalarning ayrimlarini sanab o'tdik xolos.

Ko'rinib turibdiki, iqtisodiy tahlilning vazifasi bozor munosabatlari erkinlashayotgan bugungi sharoitda ham, kelajakda ham korxonalar xo'jalik faoliyatini uzluksiz yaxshilab borishi uchun iqtisodiy dastak sifatida muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki, korxonalar faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilib borilishi biznes rejani to'g'ri tuzilganligi va uni amalda bajarilishi ustidan nazorat olib borish, korxonalar faoliyatini rivojlantirishni joriy va istiqbol rejalarini belgilash, ichki xo'jalik rezervlarini aniqlash va ularni korxonalar faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirish, faoliyat samaradorligini natijalarini o'rganib borish va tahlil materiallariga asosan ishlab chiqarishda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish hamda bajarilishi ustidan nazorat olib borish imkoniyatini yaratadi.

Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, fan-texnika taraqqiyotini yana ham jadallashtirish, ishlab chiqarish salohiyatidan, imkoniyatidan oqilona foydalanish, resurslarning hamma turlarini har tomonlama tejash va ishlab chiqarishni boshqarish mamlakatimiz iqtisodiy strategiyasining eng muhim tarkibiy qismidir. Bu muhim vazifalarni bajarish uchun korxonalarining ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini chuqur tahlil qilish kerak bo'ladi.

Iqtisodiy tahlilning mazmuni eng avvalo uning boshqa tizimida bajaradigan funksiyalaridan kelib chiqadi. Ana shunday funksiyalaridan biri iqtisodiy qonunlarni ta'siri xarakterini o'rganish, aniq korxonalar sharoitida iqtisodiy hodisa va jarayonlar qonuniyatlari va tendentsiyalarini belgilash hisoblanadi.

Turli mulkchilikka asoslangan iqtisodiyot bozor munosabatlarining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Uning sub'ektlari bo'lgan korxonalar, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi boshqa shaxslar mulkning egasi va ta'sarruf etuvchisi sifatida mablag'lardan to'g'ri foydalanishdan manfaatdordirlar. Bu esa sodir bo'layotgan xo'jalik jarayonlari va hodisalarini davriy kuzatishni, faoliyat natijaviyligini batafsil o'rganishni hamda ularni iqtisodiy tahlil qilishni talab etadi.

Shu jihatdan korxonalar faoliyatini boshqarishning muhim vositasi va quroli bo'lgan iqtisodiy tahlil o'ta ahamiyatli hisoblanadi.

Iqtisodchi olimlar tomonidan iqtisodiy tahlil korxonani boshqarishni muhim funktsiyalaridan biri sifatida quyidagilarga yordam berishi ko'rsatilgan²:

a) boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslanishi ta'minlanadi;

b) mulk va mablag'lardan foydalanishning muqobillik shartlarini belgilaydi va boshqaruvchi ular qatoridan o'zi uchun maqbul bo'lgan optimal variantlarni tanlaydi;

v) istiqbolli boshqarish uchun zamin tayyorlaydi.

Ishlab chiqarishni boshqarish jarayonida uch bosqichni ko'rsatish mumkin:

1. Axborotlarni to'plash, qayta ishlash va tayyorlash.

2. Ob'ektning holatini iqtisodiy tahlil qilish va tahlil natijalari asosida takliflar kiritish.

3. Optimal boshqaruv qarorlarini qabul etish.

Qabul qilingan qarorlarning samarasi va sifati tahlilning o'z vaqtida hamda tezkor tarzda o'tkazilganligiga ko'p jihatdan bog'liq. Bu yerda asosiy vazifa aynan shu uch bosqichni bir-biri bilan uzviy ravishda bog'lash hisoblanadi.

Belgilangan rejalarning amalda qanday bajarilayotgani yoki ishlabchiqarishni borishi to'g'risida real ahvolni buxgalteriya hisobi yordamida o'rganiladi. Buxgalteriya hisobida shakllangan ma'lumotlar pirovard natijada boshqaruv ehtiyojlari uchun ishlatiladi. Boshqaruv qarorlari esa tahlil ma'lumotlariga asoslanadi. Demak, iqtisodiy tahlil reja, bozordagi ahvol va buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida ob'ektdagi o'zgarishni miqdor va sifat jihatdan o'rganadi hamda baho beradi. Uning yordamida yo'l qo'yilgan kamchiliklar topiladi hamda tugatiladi, ob'ektni yanada rivojlantirish yo'llari belgilanadi yoki samarali ishlashni ta'minlaydigan yo'nalishga o'tkaziladi. Bu esa, boshqaruv qarorlarini nechog'lik real qabul qilinishiga asos bo'ladi.

Demak, buxgalteriya hisobi va hisoboti mahlumotlar ham iqtisodiy tahlil vositasida qayta ishlanar ekan. Bu bilan iqtisodiy tahlilning boshqaruv faoliyatidagi o'rni yanada yaqqolroq ko'rinadi.


Hisob va iqtisodiy tahlil xo'jalikni boshqarishda asosiy vositabo'lishi kerak. Binobarin, mahsulot ishlab chiqarish jarayoni va natijalari kundalik hisob va hisobotda o'z aksini topadi. Demak, iqtisodiy tahlil korxonalar faoliyatini nazorat qilishda, xo'jalik hisobini mustahkamlashda, iqtisodiy tejamni o'kazishda, texnika taraqqiyotini jadallashtirishda, ilg'or tajribalarni tarqatishga, ish faoliyatida mavjud bo'lgan kamchiliklarga barham berishda va ichki xo'jalik rezervlarini aniqlashda muhim vosita sifatida qo'llaniladi. Iqtisodiy tahlil o'z mazmuni jihatidan turlicha-dir.

² Ишонқулов Н.Ф. ва бошқалар. Иқтисодий таҳлил назарияси. Дарслик. –Т.: Саностандарт, 2014. -34 б.

Tahlil korxonasi va uning bo'linmalari faoliyatining hamma tomonlarini o'z ichiga olgan umumiy hamda ishning qandaydir biror tomoni yoki korxonaning bir necha bo'g'inlarini o'z ichiga olgan tanlanma bo'ladi.

Shuningdek, yirik masalalarga bag'ishlangan, korxonaning kundalik ishini o'rganishga va ichki imkoniyatlarini topishga qaratilgan tezkor tahlil bo'ladi. Qabul qilinadigan qarorlarning xarakteriga qarab, tahlil quyidagilarga bo'linadi: dastlabki, tezkor, yakuniy va istiqbolli. Tahlil o'tkazish muddatlari (har kuni, bir oyda va bir yilda) yoki zarur bo'lishiga qarab ahyon-ahyonda olib borilishi mumkin.

Iqtisodiy tahlil o'tkazishning bosqichlarini 1-rasmda ko'rish mumkin.



1.2-rasm. Iqtisodiy tahlil o'tkazish bosqichlari³

Shuni aytish kerakki, korxonalar faoliyatini tahlil qilish korxonalar tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy jarayonlarni (ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmat ko'rsatish) samaradorligiga baho berish imkoniyatini yaratadi. Korxonasi faoliyati doimiy ravishda tahlil qilib borilmas ekan bugungi erkin iqtisodiyot sharoitida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni imkoniyati bo'lmaydi. Chunki, har bir amalga oshirilgan ortiqcha xarajat mahsulot tannarxini ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Bu mahsulotni sotish bahosini ortib ketishiga olib keladi. Bozorda asosiy raqobat narx bo'yicha bo'lishini hisobga olsak, bozor narxidan qimmat bo'lgan mahsulotni sotish imkoniyati bo'lmaydi.

Bozor iqtisodiyotini erkinlashtirish ko'p jihatdan ishlab chiqarishni boshqarishni muttasil takomillashtirish, moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash, ichki xo'jalik rejasini tuzish va uni takomillashtirish, korxonalar va xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida bir butun iqtisodiy siyosat olib borishni taqozo etadi.

Demak, hisob va iqtisodiy tahlil xo'jalikni boshqarishda asosiy vosita bo'lishi kerak. Binobarin, mahsulot ishlab chiqarish jarayoni va natijalari kundalik hisob va hisobotda o'z aksini topadi. Bu o'rinda korxonalarining ish faoliyati to'g'risidagi

³ Шоалимов А.Х., Тожибоева Ш.А. Иқтисодий таҳлил назарияси. Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисодиёт, 2012. – 30 бет.

hisobot ma'lumotlari xo'jalikni boshqarishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi, xalq xo'jaligi istiqbol rejalarini tuzish uchun va korxonalarining xo'jalik va moliyaviy faoliyatini tahlil qilish uchun har tomonlama asoslangan va aniq ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Iqtisodiy tahlil korxonalar faoliyatini nazorat qilishda, xo'jalik hisobini mustahkamlashda, iqtisodiy tejamni o'tkazishda, texnika taraqqiyotini jadallashtirishda, ilg'or tajribalarni tarqatishga, ish faoliyatida mavjud bo'lgan kamchiliklarga barham berishda va ichki xo'jalik rezervlarini aniqlashda muhim vosita sifatida qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, korxonalar faoliyatini rivojlantirishda iqtisodiy tahlil muhim vazifalarni bajaradi. Jumladan, tahlil olib borish natijasida biznes-rejaning qanchalik xayotiy ekanligi o'rganiladi va ilmiy jihatdan asoslanganligiga baho berish imkoniyati yaratiladi. Bu korxonalar faoliyatini rivojlantirishga imkoniyat yaratib, kelajak ishlarni rejalashtirishda oldingi biznes rejada yo'l qo'yilgan kamchiliklarni takrorlamaslik imkoniyatini beradi. Bundan tashqari biznes rejani ilmiy jihatdan asoslanganligiga erishiladi.

Korxonani iqtisodiy jihatdan tahlil qilish, korxonalar iqtisodiyotini rivojlantirishning joriy va istiqbol rejalarini tuzish uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar bazasini aniqlash imkonini beradi. Bu o'z navbatida korxonalar mablag'laridan samarali foydalanish imkoniyatlarini ochib beradi. Ya'ni, joriy rejada bugungi kunda mavjud mablag'lardan samarali foydalanish rejasi ishlab chiqilsa, istiqbol rejada korxonaga kelajakda mablag' jalb qilish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish, bu orqali korxonalar rivojlantirish istiqbolini belgilash mumkin bo'ladi.

Biznes-rejasining bajarilishiga ob'ektiv baho berish hamda uni bajarishda korxonalar bog'liq va bog'liq bo'lmagan omillar va sabablarni bir-biridan ajratib aniqlash ham korxonalar faoliyatini rivojlantirishga ta'sir qilayotgan omillar tahlilini olib borish va bu orqali korxonalar faoliyatini rivojlantirish istiqbollari belgilash uchun xizmat qiladi.

Ichki xo'jalik rezervlarini aniqlash orqali esa yuqorida tahlil qilib o'tkanimizdek, ichki imkoniyatlardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali, ortiqcha xarajatlarni iqtisod qilgan holda, ishlab chiqarishni ko'paytirish ya'ni korxonalar faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Korxonalarining xo'jalik faoliyatida kutiladigan natijalarni oldindan aniqlash esa bozorga kirib bora olish imkoniyatini baholashga xizmat qiladi. Bu bilan ushbu faoliyat turi yoki ushbu turdagi maxsulotni ishlab chiqarish maqsadga muvofiqmi yoki yo'qmi kabi savollarga javob olish mumkin bo'ladi. Bu esa kelajak istiqbol rejani to'g'ri belgilash orqali korxonalar faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tahlil materiallariga asosan esa ishlab chiqarishda aniqlangan kamchiliklarni tuzatishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish va bu tadbirlarni amalga oshirish orqali korxonalar faoliyatini rivojlantirishni yangi bosqichlariga olib chiqish, raqobatbardosh

mahsulot ishlab chiqarish, eksportbop ma'sulot yaratish, ichki bozorni sifatli va milliy mahsulot bilan boyitish, qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shoalimov A.X., Ilxamov Sh.I., Tojiboeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. – T.: Sano-Standart nashriyoti, 2017.
2. Shoalimov A.X. Tojiboeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. –T.: Iqtisodiyot, 2019. -235 b.
3. B.Xasanov, M.Raximovlarning umumiy tahriri ostida. Moliyaviy tahlil.Darslik. –T.: -Iqtisodiyot. 2019. -736 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-T.:O'zbekiston, 2019.- 46 b.
5. Vahabov A.V. va boshqalar. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2013. - 600 b.
6. Pardaev M.Q. va boshqalar. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. –T.: PrintLine-group, 2017. -396 b.
7. Muydinov B.N. Iqtisodiy tahlil va audit. O'quv qo'llanma. -A.: Step by step print, 2023. -172 b.